

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

SHOABDURAXIMOVA MANZURA MIRZOXID QIZI

**SELEN VA MARGANES KIRISHMA ATOMLARI BILAN
LEGIRLANGAN KREMNIYDAGI AVTOTEBRANISHLAR**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA–MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Fizika – matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по физико – математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on physical – mathematical sciences**

Shoabduraximova Manzura Mirzoxid qizi

Selen va marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniydagi
avtotebranishlar..... 3

Шоабдурахимова Манзура Мирзахид кизи

Автоколебания в кремнии легированном примесными атомами селена
и марганца..... 25

Shoabdurakhimova Manzura Mirzokhid kizi

Auto-oscillations in silicon doped with impurity atoms of selenium and
manganese 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 51

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI QOSHIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

SHOABDURAXIMOVA MANZURA MIRZOXID QIZI

**SELEN VA MARGANES KIRISHMA ATOMLARI BILAN
LEGIRLANGAN KREMNIYDAGI AVTOTEBRANISHLAR**

01.04.10 –Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA–MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/FM771 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tikla (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ispm.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbari: **Zikrillayev Nurullo Fatxullayevich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Azamatov Zakirjan Toxirovich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Imamov Erkin Zunnunovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.08.2019.FM/IT.01.12 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «19» 09 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100057, O'zbekiston, Toshkent shahri, Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy. Tel.(99871) 248-79-94, faks:(99871) 248-79-92, e-mail: info@ispm.uz, O'zMU qoshidagi YaFM ITI majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (69 raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100057, O'zbekiston, Toshkent shahri, Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy. Tel. (99871) 248-79-59, e-mail: info@ispm.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «06» 09 kuni tarqatildi.
(2025 yil «06» 09 dagi 69 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.B. Utamurodova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.m.f.d., professor

J. J. Humdamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
(PhD), k. t. x.

N.A. Turgunov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
f.m.f.d. professor

KIRISH (Falsafa doktori dissertatsiyasining (PhD) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Jahonda belgilangan va takrorlanuvchi elektrofizik parametrli yangi yarimo‘tkazgich materiallarni olish hamda ular asosida haroratga barqaror va radiatsion nurlanishlarga chidamli asboblari va qurilmalarni yaratishda keng ko‘lamda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Rivojlangan mamlakatlardagi ilmiy markazlar hamda oliy ta‘lim muassasalaridagi tanilgan olimlar va mutaxassislar fizik xususiyatlari bilan mavjud yarimo‘tkazgich materiallardan tubdan farq qiladigan yarimo‘tkazgich materiallar va strukturalarni kashf etishda tadqiqotlar olib bormoqdalar. Taqiqlangan sohasida chuqur energetik sathlar hosil qiluvchi kirishma atomlar kiritilgan monokristall kremniy, yarimo‘tkazgichlar elektronika sanoatida istiqbolli materiallardan hisoblanadi. Bu materiallarda yarimo‘tkazgichlar fizikasida oldin kuzatilmagan yangi fizik effektlar va hodisalar kuzatilgan bo‘lib, ularni iqtisodiyotning ko‘plab sohalarida qo‘llash imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Kuzatilgan fizik hodisalardan biri, o‘z-o‘zidan vujudga keladigan va so‘nmaydigan, barqaror tok avtotebranishlari bo‘lib, bu fizik hodisa mutaxassislarda katta ilmiy va amaliy qiziqish uyg‘otmoqda. Avtotebranish hodisaning tabiati va fizik mexanizmi shu kunga qadar olimlar tomonidan to‘liq ochib berilmagan. Bundan tashqari, kuzatilgan turg‘un va doimiy tok avtotebranishlari kremniy materialini mikroelektronikada qo‘llashni sezilarli kengaytirib, ko‘pfunksional fizik kattaliklarni o‘lchovchi amplituda-chastotali chiqishga ega datchiklarni hamda elektromagnit signallarni hosil qiluvchi qattiq jism generatorlarini yaratish imkoniyatlarini ochib berdi.

Jahonda yarimo‘tkazgichlarda kuzatilgan avtotebranish sohasi bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlarning tahlili asosida, hozirgi kunga qadar tok avtotebranishlarini vujudga kelishida boshlang‘ich yarimo‘tkazgich materialning elektrofizik parametrlariga bog‘liqlik qonuniylari o‘rganilmaganligi aniqlandi. Dunyoning yetakchi mamlakatlaridagi ilmiy markazlarda tok avtotebranishlarining vujudga kelishi hamda parametrlarini (amplituda, chastota) materialning solishtirma qarshiligiga, kirishma atomlarining elektrofaol konsentratsiyasiga, o‘tkazuvchanlik turi va legirlangan elementlarning tabiatiga hamda kirishma atomlari hosil qilgan nanoklasterlar shakllanishiga va ularni boshlang‘ich materialning kristall panjarasida joylashishiga bog‘liqligini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Dunyo olimlar hamjamiyati tok avtotebranishlarini vujudga kelishi va uning parametrlariga tashqi omillarning ta‘sirini o‘rganish hamda kuzatilgan hodisalarning fizik mexanizmini tushuntirib berish dolzarb masalalardan biri deb qaramoqda.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda yarimo‘tkazgich materiallarda kuzatilgan hodisalarning fizik mexanizmlarini ochib berish hamda ular asosida yaratilgan asboblari va qurilmalarni elektronikaning turli sohalarida amaliyotga qo‘llashda ma‘lum darajada ilmiy yutuqlarga erishilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19-mart 2021-yildagi “Fizika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹gi PQ-5032 son

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, “Fizika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 19.03.2021 yildagi PQ-5032-son

qarorida fizika sohasida ilmiy tadqiqot ishlarining natijalarini ishlab chiqish bilan uzluksiz aloqasining masshtabini kengaytirish, iqtisod sohalaridagi masalalarni hal qilishga yo'naltirish, ilmiy tadqiqotlarni hamda innovatsion faoliyatning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirish masalalari qo'yilgan. Bu yo'nalishda yangi funksional imkoniyatlari mavjud kam energiya talab etadigan yarimo'tkazgich asboblarni yaratish, ularga sarf etiladigan energiyani tejashga va tannarxini kamaytirishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"² hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"³ farmonlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-martdagi PQ-5011-son "Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"⁴ Prezident Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁵ Prezident Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya ishida olingan ilmiy natijalar muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining III. "Energiya, energiya resurslarini tejash, transport, raketa va kosmik texnikasi, aviatsiya, robototexnika, mashinasozlik va asbobsozlik, zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika, elektron asbobsozlikni rivojlantirish" dagi ustuvor yo'nalishlarga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. So'nggi yillarda muvozanatda bo'lmagan holatlarni yarimo'tkazgich materiallar va strukturalarda kuzatilgan avtotebranish jarayonlari asosida o'rganish va ularning fizik mexanizmlarini ochib berishga hamda elektromagnit tebranishlarni olish va ular orqali axborotlarni masofaga uzatish olimlar va mutaxassislar e'tiborini jalb qilmoqda.

Xorijiy olimlar A.Sh. Abdinov (Baku davlat universiteti, Baku sh., Azerbajon Respublikasi), Yu. Seki (Yaponiya), N. Xolonyak (AQSh Milliy muhandislik akademiyasi, Vashington sh., AQSh), Z. Chen (Fizika-kimy o Sinsyan texnologiya instituti, Urumchi sh., Xitoy Xalq Respublikasi) va boshqalarning ilmiy maktablarda va ilmiy markazlarda tok avtotebranishlari turli yarimo'tkazgich materiallarda o'rganilgan va tebranishlarning fizik mexanizmlari taklif etilgan hamda ular asosida

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 28.01.2022 yildagi PF-60-son

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 29.10.2020 yildagi PF-6097-son

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 03.03.2021 yildagi PQ-5011-son

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 16.02.2023 yildagi PQ-57-son

qattiq jisimli generatorlar yaratilib, amaliyotda foydalanish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Rossiyalik olimlar S.G. Kalashnikov (Radiotexnika va elektronika instituti, Moskva sh.), Yu.I. Balkarey va L.L. Golik (Radioelektronika va elektronika instituti, Fryazina sh.), Ye.B. Astrova (A.F. Ioffe nomidagi fizika texnika instituti, Sankt-Peterburg sh.), V.V. Kolobayev (Moskva energetika instituti, Moskva sh.) va boshqalarning ilmiy maktablarda yarimo'tkazgich materiallar va strukturalarda aniqlangan tok avtotebranishlari tadqiq etilgan. S.G. Kalashnikov tomonidan CdS va CdSe yarimo'tkazgich birikmalarda kuzatilgan past chastotali tebranishlar o'rganilgan bo'lib, kuzatilgan hodisaning fizik mexanizmini tushuntirishda uchta energetik sathli fizik model taklif etilgan. Tok tebranishlarini o'rgangan olimlar, yarimo'tkazgich materiallarda tebranishlarni hosil qilish va tadqiq etish uchun turli diffuzion usullar bilan kiritilgan, (o'stirish jarayonida legirlangan, diffuzion legirlangan yoki ionlar implantatsiya qilingan) kirishma atomlar materialning taqiqlangan sohasida chuqur energetik sathlarni hosil qilish shartligini ko'rsatib berganlar. Bu olimlarning ilmiy ishlari va maqolalarining tahlili asosida tok tebranishlar turli materiallarda kuzatilgani uchun, taklif etilgan fizik mexanizmlari ham bir-biridan farq qilishi aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasidagi olimlar, O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademiklari R.A. Mo'minov, M.K. Baxodirxonov, A.M. Mamadalimov, S.Z.Zaynobbiddinov hamda professorlar K.P. Abduraxmonov, Sh.B. Utamurodova, E.Arziqulov, K. Ismailov va boshqa olimlar rahbarligida yaratilgan ilmiy maktablarda yarimo'tkazgich kremniyga kirishma atomlarni kiritish texnologiyasini takomillashtirish, olingan materiallarning elektrofizik, fotoelektrik va optik xususiyatlarini o'rganish hamda ular asosida zamonaviy qurilmalarni yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Akademik M.K. Baxodirxonov, professorlardan E.Arziqulov, va T. Komilovning ilmiy maktablarida gaz holatidan diffuziya yoki ion implantatsiya usuli bilan kompensirlangan kremniyda tok avtotebranishlari tadqiq qilingan. Bu ilmiy maktablarda marganes, rux, oltingugurt va selen kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniyda ma'lum termodinamik sharoitlarda turli xil tok avtotebranishlarini vujudga kelishi, ya'ni uch xil tabiatga ega tok tebranishlari kuzatilgan.

Adabiyotlarning tahlili asosida shu davrgacha tok avtotebranishlarining parametrlarini kremniyning elektrofizik parametrlariga bog'liqligi bo'yicha takrorlanadigan natijalar olinmaganligi aniqlandi. Tok avtotebranishlarining fizik mexanizmini tushuntirishda mualliflar tomonidan kirishma atomlarni kremniy kristall panjarasida joylashishi va kremniyning taqiqlangan sohasida ular hosil qilgan chuqur energetik sathlarning holati o'rganilmaganligi aniqlandi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat texnika universitetining "Raqamli elektronika va mikroelektronika" kafedrasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bazasida, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan mablag'lashtirilgan F-OT-55 raqamli "Yangi funksional imkoniyatlarga ega nanomateriallarning yangi sinfi sifatida

kirishma atomlarining nanoklasterlarini shakllantirish asosida hajmli strukturali kremniyni olishning ilmiy asoslari” (2017-2020 yillar) mavzusidagi fundamental ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi selen yoki marganes kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniyda avtotebranish jarayonlarini kompleks tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

selen yoki marganes kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniy namunalarining solishtirma qarshiligi $\rho=10^3\div 10^5 \text{ Om}\cdot\text{sm}$ bo‘lgan oralig‘ida kerakli elektrofizik parametrlari p- va n- o‘tkazuvchanlikka ega namunalarni olishning texnologiyasini ishlab chiqish;

monokristall kremniy panjarasida selen yoki marganes kirishma atomlari hosil qilgan nanoklasterlarning element tarkibi va strukturasi o‘rganish;

tok avtotebranishlarining parametrlari (amplituda, chastota) va ulangan elektr maydon kuchlanishining qiymati bo‘yicha vujudga kelishiga haroratni, integral yorug‘lik qiymatini va monoxromatik nurlanishning to‘lqin uzunligini hamda magnit maydon kuchlanishining ta’sirlarini o‘rganish;

selen yoki marganes kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniyda kuzatilgan tok avtotebranishlarining fizik mexanizmlarini tushuntira oladigan modelini ishlab chiqish;

selen yoki marganes kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniyda kuzatilgan tok avtotebranishlarini qattiq jism elektronikasida qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rsatib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida solishtirma qarshiligi $\rho\sim 1\div 100 \text{ Om}\cdot\text{sm}$ (KDB-1, 10, 100 markali) oralig‘ida, qoldiq kislorod atomlarining konsentratsiyasi $N_0=5\div 7\cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$ bo‘lgan monokristall kremniy olingan.

Tadqiqotning predmeti selen yoki marganes kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniydagi tok avtotebranishlarining parametrlari va vujudga kelish shartlarini kirishma atomlarining elektrofaol konsentratsiyasiga, elektr va magnit maydonlarning qiymatiga, integral yorug‘lik va monoxromatik nurlanishning qiymatlariga hamda kirishma atomlarni kremniyda nanoklasterlarni hosil qilish tabiatiga bog‘liqligini o‘rganish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda quyidagi: SEM Jeol JSM-IT 200 LA markali skanerlovchi elektron mikroskop, FSM-1202 markali Furrye-spektrometri, UVR-3M markali vakuum qurilmasi, Ecopis HMS-3000 markali qurilma asosida Xoll effekti, Van-der-Pau usullaridan hamda boshqa zamonaviy usullar va o‘lchov asboblardan foydalanib, kompensatsiyalangan kremniy namunalarining tarkibi, elektrofizik va fotoelektrik parametrlarini hamda tok avtotebranishlarining amplituda va chastotasining qiymatlari aniqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

selen kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyda harorat $T=1100\div 1250^\circ\text{C}$ va diffuziya vaqti $t=5\div 10$ soat, marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyda harorat $T=950\div 1200^\circ\text{C}$ va diffuziya vaqti $t=0,5\div 1$ soat oralig‘ida bo‘lganda, boshlang‘ich monokristall kremniyning kristall panjarasida selen yoki

marganes kirishma atomlarining nanoklasterlarini shakllanishining ikki bosqichli takrorlanuvchi diffuzion texnologiyasi ishlab chiqilgan;

selen yoki marganes kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniyda avtotebranishning vujudga kelish shartlari (elektr maydon kuchlanganligi, harorat, yoritilganlik)ni boshqarib, uch xil tabiatdagi turg'un va takrorlanuvchi parametrli avtotebranishlar bitta namunada kuzatilgan hamda avtotebranishlarning vujudga kelishini termodinamik shartlari va harorat bo'yicha chegara sohasi $Si < B, Se >$ namunalari uchun $T = 80 \div 300$ K, $Si < B, Mn >$ namunalari uchun $T = 80 \div 350$ K oraliqda bo'lishi aniqlangan;

ilk marotaba selen kirishma atomlari diffuziya usuli bilan legirlangan kremniy namunalarda $T = 80 \div 300$ K harorat oralig'ida tok avtotebranishining chastotasi $f = 5 \cdot 10^{-3} \div 10^5$ Gs oralig'ida, amplitudasi $J = 10^{-4} \div 2 \cdot 10^{-1}$ A oralig'ida, marganes kirishma atomlari diffuziya qilingan kremniy namunalarda $T = 80 \div 350$ K harorat oralig'ida avtotebranishning chastotasi $f = 10^{-3} \div 5 \cdot 10^5$ Gs va amplitudasi $J = 3 \cdot 10^{-5} \div 2,5 \cdot 10^{-1}$ A oralig'ida bo'lishi hamda magnit maydoni 25 kEr gacha o'zgarishida avtotebranishining chastotasi $f = 10^2 \div 3,5 \cdot 10^3$ Gs oralig'ida, amplitudasi $J = 10^{-4} \div 6 \cdot 10^{-5}$ A oralig'ida bo'lishi aniqlangan;

selen yoki marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyda kuzatilgan tok avtotebranishlarining fizik mexanizmini tushuntirishda, bir jinsli bo'lmagan yarimo'tkazgichning modeli taklif etilgan va olingan tajriba natijalarining fizik mohiyatlari ushbu model asosida tushuntirilgan;

olingan tajriba natijalarining tahlilidan aniqlangan, kompensatsiyalangan kremniyda kuzatilgan tok avtotebranishlarining parametrlari (amplituda, chastota)ni $T = 80 \div 300$ K harorat oralig'ida chiziqli o'zgarishi asosida fizik kattaliklarni o'lchaydigan amplituda-chastotali chiqishga ega datchiklarni hamda elektromagnit to'lqinli qattiq jism generatorlarini yaratish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Tadqiqotlarning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich kremniydagi bor kirishma atomlarining konsentratsiyasini boshqarish asosida belgilangan elektrofizik parametrli selen yoki marganes kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniy namunalari olishning ikki bosqichli diffuzion texnologiyasi yaratilgan;

selen yoki marganes kirishma atomlarini legirlashda diffuzantlarning gaz holatidagi bosimini boshqarish asosida, sirtida eroziya bo'lmagan kompensatsiyalangan kremniy namunalari olishning termodinamik shart-sharoitlari va texnologik bosqichlari aniqlangan;

kompensatsiyalangan kremniy asosida fizik kattaliklarni o'lchovchi amplituda-chastotali chiqishga ega datchiklarni hamda elektromagnit signalli qattiq jism generatorlarini yaratish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi zamonaviy yuqori aniqlikda o'lchovchi asboblardan foydalanish hamda bir-biriga bog'liq bo'lmagan tajriba usullari asosida kompensatsiyalangan kremniyda selen yoki marganes kirishma atomlari hosil qilgan nanoklasterlarning tarkibi va holati haqida ilmiy natijalar olingan. Tok avtotebranishlarini elektr maydon kuchlanganligida vujudga kelishi va

parametrlarini o'rganishda olingan tajriba natijalari nazariy hisoblar asosida aniqlanganlari bilan mos tushishi hamda dissertatsiya ishida tok avtotebranishlarini tushuntirishda taklif etilgan fizik mexanizmlar, bir jinsli bo'lmagan yarimo'tkazgichlar modeli va yarimo'tkazgichlar fizikasining fundamental tushunchalariga mos tushganligi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarini ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bir jinsli bo'lmagan yarimo'tkazgich materiallarning fizik modelidan foydalanib, selen yoki marganes kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniy namunalarda kuzatilgan tok avtotebranishlarining mexanizmlari tushuntirildi. Tadqiqotlarda olingan natijalar yarimo'tkazgich materiallar va strukturalarda kuzatilgan muvozanatda bo'lmagan jarayonlar haqida qo'shimcha ma'lumotlarni olishga va bu hodisalarning fizikasi haqidagi ilmiy tasavvurni kengayishiga hamda yarimo'tkazgichlar fizikasida yangi yo'nalishni rivojlantirishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tajriba natijalari asosida fizik kattaliklarni o'lchovchi datchiklar va elektromagnit signalli qattiq jism generatorlarini yaratish imkoniyatlari ko'rsatib berildi, qo'shimcha sxematexnik o'zgarishsiz katta amplitudali o'zgaruvchan signalni olish, axborotlarni uzoq masofalarga uzatishdagi muammoni hal qilishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. Selen yoki marganes kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniyda avtotebranish jarayonlarini tadqiq qilish asosida:

selen yoki marganes kirishma atomlarini gaz holatidan diffuziya qilishda, kremniy sirt holatini eroziyasiz olishda yaratilgan texnologiya "FOTON" AJ da foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi "Uzeltexsanoat" Assotsatsiyasining 2024-yil 1-apreldagi №-04-3/340 raqamli hamda "FOTON" AJ ni 2024-yil 27-martdagi 68-son ma'lumotnomalari). Ilmiy natijalardan foydalanish kerakli va turg'un elektrofizik ishchi parametrlari diodlar va tranzistorlarni olish imkonini bergan;

selen yoki marganes kirishma atomlari bilan kompensatsiyalangan kremniy namunalarda kuzatilgan tokning avtotebranishlarini o'rganishda olingan ilmiy natijalar Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida, OT-Φ2-77 raqamli "Ichki nuqsonlar strukturasi modellashirish asosida yarimo'tkazgich asboblarning ishonchligini bashorat qilish usulini takomillashtirish" mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 13-avgustdagi 4/14-4/4-13473-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalar asosida amplituda-chastotali chiqish signalli datchiklarni hamda keng chastota $f=10^{-3}\div 10^5$ Gs oralig'ida ishlovchi qattiq jism generatorlarni yaratish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishini bajarishda olingan ilmiy natijalar 10 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza va muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Jami 23 ta ilmiy ish, jumladan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha 7 ta maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa va fan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya

etilgan ilmiy nashrlarda, shundan 3 tasi Scopus bazasida chop etilgan hamda marganes kirishma atomlarini kremniyga diffuziya qilish jarayonini hisoblash bo'yicha 2 ta dasturiy ta'minotga guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 25 ta rasm va 6 ta jadvalni o'z ichiga olgan holda, 107 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **kirish** qismida, tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot fan va texnika rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan hamda ilmiy muammoni hal qilish holati aniqlangan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyektlari va tadqiqot usullari asoslangan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, shuningdek, olingan ilmiy natijalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari ko'rsatilgan. Dissertatsiya yakunida ilmiy tadqiqot natijalarini xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza va muhokama qilingani, chop etilgan maqolalar haqida hamda ishning hajmi va tarkibi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Kirishma atomlarining nanoklasterlari mavjud kremniyning xususiyatlari hamda yarimo'tkazgich materiallarda va yarimo'tkazgich strukturalarda tok avtotebranishlari”** nomli birinchi bobi adabiyotlar sharhiga bag'ishlangan bo'lib, dissertatsiya sohasidagi mavjud ilmiy adabiyotlarning tahlili berilgan. Bob oxirida dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari aniqlangan.


Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“Kremniyda selen va marganes kirishma atomlarining nanoklasterlarini olish texnologiyasi, olingan namunalarning element tarkibi, elektrofizik va fotoelektrik parametrlarini o'rganishning zamonaviy usullari, kremniyda tok avtotebranishlarini kuzatish usullari”** deb nomlangan bo'lib, selen yoki marganes kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniy namunalari kerakli elektrofizik parametrdagi diffuzion texnologiyaga bag'ishlangan. Yaratilgan ikki bosqichli diffuzion texnologiya kremniy sirtida eroziya bo'lmasligini ta'minlovchi selen yoki marganes kirishma atomlarini legirlab, kompensatsiyalangan kremniy olish imkonini berdi. Kompensatsiyalangan kremniy olishning termodinamik shart-sharoitlari va texnologik bosqichlari aniqlandi, bu kremniyga kiritilgan selen yoki marganes kirishma atomlarining elektrofaol konsentratsiyasini nazorat qilish imkonini berdi.

Dissertatsiya ishini bajarishda foydalanilgan zamonaviy qurilmalarning imkoniyatlari va foydalanilgan usullar batafsil tavsiflangan. Bob oxirida selen yoki marganes kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniy olish uchun yaratilgan ikki bosqichli diffuzion texnologiyaning ilmiy tahlili berilgan, olingan ilmiy natijalarni mavjud ilmiy ma'lumotlar bilan taqqoslaganda o'zaro mosligi asosida ularning ishonchliligi tasdiqlangan.

Dissertatsiya ishining **“Selen va marganes kirishma atomlarining nanoklasterlari mavjud kompensatsiyalangan kremniyning element tarkibi,**

elektrofizik xossalari, ularda kuzatilgan tok avtotebranishlarining xususiyatlari” deb nomlangan uchinchi bobida, tajribalar asosida olingan ilmiy natijalar keltirilgan bo‘lib, kompensatsiyalangan kremniy namunalarining elektrofizik parametrlari boshlang‘ich kremniyning elektrofizik parametrlaridan katta farq qilishi aniqlandi.

Selen yoki marganes kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniyning element tarkibi Joel JSM-IT200LA markali skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) yordamida amalga oshirildi. Selen kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning element tarkibini aniqlashda bir xil termodinamik diffuziya sharoitida kirishma atomlarisiz boshlang‘ich kremniy namunalariga ham haroratli ishlov berildi. 1-rasmda kirishma atomlarisiz va selen kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniy namunalarining sirt morfologiyasining mikrofototasviri va element tarkibi haqidagi ma’lumotlar berildi.



Element	Chiziq	Massa %	Atom %
O	K	31.65±0.05	44.97±0.08
Si	K	67.81±0.06	54.88±0.04
Se	L	0.54±0.01	0.16±0.00
Jami		100.00	100.00


1-rasm. Jeol JSM-IT 200LA markali skanerlovchi elektron mikroskopda olingan selen kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniy sirtining a- morfologiyasi va b-element tarkibining spektri

SEMga bir vaqtning o‘zida maxsus taglikka to‘rtta kremniy namunalarini o‘rnatish mumkinligi boshlang‘ich kremniy namunalarini va selen kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniy namunalarining element tarkibini o‘zaro solishtirib, qiyosiy tahlilini olish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, $T=1100\div 1250^{\circ}\text{C}$ diffuziya harorati oralig‘ida haroratli ishlov berilgan boshlang‘ich kremniy namunalarining sirtida kremniy oksid (SiO_2) qatlamini hosil bo‘lishi kuzatildi (1.a-rasmga qarang). Oksid qatlamni shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lgan spektral cho‘qqining intensivligi oksid qatlamisiz boshlang‘ich kremniyning cho‘qqisiga qaraganda ancha past bo‘ldi. Olingan tajriba natijalari boshqa mualliflar tomonidan olingan ma’lumotlar bilan o‘zaro mosligi aniqlandi.

Skanerlovchi elektron mikroskop spektrida selen kirishma atomlari mavjud kompensatsiyalangan kremniy namunalarida qo‘shimcha cho‘qqilar kuzatildi (1.b-rasmga qarang), bu monokristall kremniyda bir nechta selen atomlaridan iborat nanoklasterlarni hamda alohida selen kirishma atomlari mavjudligini ko‘rsatdi.

Kompensatsiyalangan kremniyning element tarkibi aniqlanganda, selen kirishma atomlarining konsentratsiyasi massa bo'yicha ~0,54% ni, kremniy atomlarining konsentratsiyasi massa bo'yicha ~67,81% ni, kislorod atomlarining konsentratsiyasi massa bo'yicha ~31,65% ni tashkil qildi. Shunga o'xshash tadqiqot natijalari marganes kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniy namunalarda ham olindi.

Olingan namunalarning foto-o'tkazuvchanligini o'rganish shuni ko'rsatdiki, monoxromatik nurlanishning $h\nu=0,3\div 0,7$ eV fotonlar energiyasi oralig'ida fon integral nurda hosil bo'lgan fotoo'tkazuvchanlikning IQ-nur ta'siridagi so'nishi kuzatildi. Kremniyga kiritilgan elektrofaol selen kirishma atomlarining konsentratsiyasini ortib borishi bilan IQ-nur ta'siridagi so'nish oralig'i kamaydi, ya'ni fototokning qiymati keskin pasaydi hamda fototokning IQ-nur ta'siridagi so'nishining fotonlar energiyasi oralig'i toraydi. Shunga o'xshash natijalar marganes kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniy namunalarning fotoelektrik xususiyatlarini o'rganishda ham kuzatildi (2-rasm 1-chiziqqa qarang).




2-rasm. Selen yoki marganes kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniy namunalarda fototokni IQ-nur ta'sirida so'nishining spektral bog'liqligi. 1- Si<Mn> namunasi uchun, 2- Si<Se> namunasi uchun, $T=80K$, $I_{ph}=10^{-6}$ Vt/sm²·s, $E=40$ V/sm

Boshlang'ich kremniyni legirlashda tanlangan elementlar kirishma atomlarining turiga bog'liq IQ-nur ta'siridagi so'nishning chuqurligi va oralig'ini aniqlash uchun selen hamda marganes kirishma atomlari bilan kompensatsiyalangan kremniy namunalarda fototokning IQ-nur ta'siridagi so'nishining chuqurligi va spektral oralig'i o'zaro solishtirildi. 2-rasmdan ko'rinib turibdiki, marganes kirishma atomlari bilan kompensatsiyalangan kremniy namunalarda fototokning IQ-nur ta'siridagi eng chuqur so'nishi kuzatildi. Shu bilan birga, selen kirishma atomlari bilan kompensatsiyalangan kremniy namunalarda fototokning IQ-nur ta'siridagi so'nishining qiymati boshqa boshqa yarimo'tkazgich materiallarda kuzatilgan fototokning IQ-nur ta'siridagi so'nishiga nisbatan ancha chuqur bo'lishi aniqlandi.

Se va Mn kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniy namunalarda fotoo‘tkazuvchanlikni harorat ta’sirida so‘nishi (FHTS)ni o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, fotoo‘tkazuvchanlikning so‘nishini boshlanishi va chuqurligi fon yorug‘ligining qiymatiga, namunalarning kompensatsiya darajasiga va elektrofaol kirishma atomlarining konsentratsiyasiga bog‘liqligi aniqlandi. Kompensatsiyalangan kremniyda fon yorug‘ligining va kompensatsiya darajasining qiymatlarini tanlab, monoxromatik nurlanish to‘lqin uzunligini va haroratning yetarlicha katta oralig‘ida infraqizil nurlar hamda harorat ta’siridagi fototokning so‘nishini kuzatish mumkinligi aniqlandi. Infraqizil nurlar va harorat ta’siridagi fototokning so‘nishini kuzatilishiga kompensatsiyalangan kremniyda ikki marta ionlashgan selen yoki marganes kirishma atomlari hosil qilgan chuqur energetik sathlar sababchi ekanligi aniqlandi. Bu ionlashgan kirishma atomlar chuqur energetik sathlarni hosil qilishi bilan birga Se va Mn kirishma atomlarining nanoklasterlarini ham hosil qilishi aniqlandi:

$Si\langle Se \rangle E_c = 0,51 \text{ eV}$, donor

$Si\langle Mn \rangle E_c = 0,5 \text{ eV}$, donor.




3-rasm. Kompensatsiyalangan kremniyda past chastotali tok avtotebranishining turli shakllari: a-kvazigarmonik, b-cho‘qqisimon, d-reflektiv, e-uzoq muddatli

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ma’lum sharoit-larda (elektr maydon kuchlanishi va yorug‘lik) infraqizil nurlar va harorat ta’siridagi fotoo‘tkazuvchanlikni so‘nishi kuzatilgan selen yoki marganes kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniy namunalarda turli shakldagi tok avtotebranishlarini vujudga kelishi aniqlandi (3- va 4-rasmlarga qarang).

Kompensatsiyalangan kremniydagi avtotebranish jarayonlarini har tomonlama va kompleks o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, mavjud termo-dinamik sharoitlarni (elektr maydon kuchlanishi, yorug‘lik, harorat va boshqalar) boshqarish orqali turli tabiatga

ega bo‘lgan bir necha turdagi tok avtotebranishlarini bir materialda olish mumkinligi aniqlandi.

Diffuziya usuli bilan kremniyga kiritish uchun tanlangan kirishma atomlarning elementlaridan qat’iy nazar, avtotebranishlarni kuzatish uchun kremniyning taqiqlangan sohasida kirishma atomlarining chuqur energetik sathlari mavjud bo‘lishi kerakligi aniqlandi.




4-rasm. Yorug‘likning turli qiymatlaridagi tok avtotebranishlarning turli shakllari: T=80 K a - $5 \cdot 10^{-2}$ lyuks, b - 10^{-1} lyuks, d - 10 lyuks, e – 50 lyuks

Selen yoki marganes kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniydagi past chastotali tok avtotebranishining fizik mexanizmini tushuntirish uchun A.Ya.Shik va M.K.Sheynikman tomonidan taklif qilingan bir jinsli bo‘lmagan yarimo‘tkazgich materiallarning fizik modelidan foydalanildi. Bu modelga ko‘ra, bir jinsli bo‘lmagan yarimo‘tkazgichda o‘tkazuvchanlik sohasi va valent sohasining relyeflarida fluktuatsiyalar hosil bo‘ladi. Bunday bir jinsli bo‘lmagan notekisliklarning yuzaga kelishi uchun yarimo‘tkazgich material kirishma atomlari bilan kuchli legirlangan bo‘lishi, ya’ni kirishma atomlarning konsentratsiyasi $N \approx 10^{18} \div 10^{19} \text{ sm}^{-3}$ oraliqda bo‘lib, ular hajm bo‘yicha bir xil taqsimlangani uchun ichki potentsial maydonlarni paydo bo‘lishi hisobiga yarimo‘tkazgich materialning o‘tkazuvchanlik va valent sohaslarining relyeflarini fluktuatsiya bo‘lishi bilan tushuntirilgan. Shu kabi fizik model nanoelektronikada o‘tapanjaralarda kuzatilgan fizik jarayonlarning mohiyatini tushuntirishda ham taklif qilingan “Legirlangan o‘tapanjara”ning fizik mexanizmi “Elektronika va nanotexnologiyaga kirish” darsligida mualliflar V.N. Lozovskiy, G.S.Konstantinova va S.V. Lozovskiy tomonidan to‘liq tushuntirib berilgan.

Bizning holatda, kirishma atomlarining (selen yoki marganes) konsentratsiyasi o‘talegrilgan holatdagi kirishma atomlarning konsentratsiyasiga qaraganda ikki-

uch daraja past bo'lsa-da, kremniyda bu kirishma atomlar ikki marta ionlashgan holatda bo'lib, bir necha atomlardan tashkil topgan nanoklasterlarni hosil qiladi, ularning zaryadi har doim ± 2 dan ortiq bo'ladi. Shakllangan nanoklasterlarning Dabayev ekranlashishining radiusi nisbatan katta o'lchamlarda bo'lib, ular bir-biri bilan o'zaro birlashishi natijasida kompensatsiyalangan kremniyning taqiqlangan sohasida o'tkazuvchanlik va valent sohalarni fluktuatsiyalanishiga va potentsiallar relyefini hosil bo'lishiga olib keladi. Selen yoki marganes kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniyda kuzatilgan past chastotali tok avtotebranishlarining fizik mexanizmini o'tkazuvchanlik va valent sohalarning fluktuatsiyasiga asoslanib tushuntirishda quyidagi fizik model taklif etildi. Tok avtotebranishining mexanizmini tushuntirish uchun, misol sifatida, selen kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniy namunalari tanlab olindi.



5-rasm. Selen kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniyning sohalar diagrammasini bir jinsli bo'lmagan fluktuatsiyali potentsial relyefi

Taklif etilgan modelga asosan, doimiy yorug'likda generatsiyalangan muvozanatda bo'lmagan elektronlar selen kirishma atomlarining +8 gacha musbat zaryadlangan nanoklasterlari hosil qilgan energetik sathlarda ushlanib qolinadi, kovaklar esa valent sohasining potentsial o'ralarida to'planadi. Bunday holda, elektr o'tkazuvchanlik (5-rasmga qarang) valent sohada joylashgan "oquvchanlik" sathidagi kovaklarning konsentratsiyasi hamda dreyf potentsial to'sig'ining qiymatiga bog'liq bo'ladi.

Taklif etilgan modelga asoslanib, kompensatsiyalangan kremniyda tokning past chastotali avtotebranishini vujudga kelishi va doimiy davriy takrorlanishining shartlarini matematik tarzda tavsiflash mumkin. Tok tashuvchilar konsentratsiyasining sathlarda ("oquvchanlik" va selen atomlarini chuqur energetik sathida) vaqt va haroratga bog'liq o'zgarishini tavsiflovchi tenglamalar tizimini quyidagicha yozish mumkin:

$$\begin{aligned} \frac{dT}{dt} &= \frac{jE}{\rho c} - b(T - T_0) \\ \frac{dP}{dt} &= L - C_{nr}rp - C_{pm}Sp \\ \frac{dn}{dt} &= L + BS - C_{np}(N_2 - r)n - C_{nm}(N_m - S)n \\ \frac{dr}{dt} &= C_{nr}(R - r)n - C_{pr}rp \\ S &= p - n - r; j = ep\mu E e^{-\frac{E_{\partial p}}{RT}} \end{aligned} \quad (1)$$

bunda E - elektr maydon kuchlanishi, S_n - issiqlik uzatish koeffitsiyenti; h - namunaning yon tomon sirti; r – material zichligi, C – solishtirma issiqlik sig‘imi; A – doimiy parametr; S_n – namunaning kesim yuzasi; L - elektronning valent sohasidan o‘tkazuvchanlik sohasiga o‘tish omili; S, r - selen kirishma atomlarining hamda elektronlarning konsentratsiyasi; C_{nr}, C_{pr} - rekombinatsiya sathida elektron va kovaklarning yutilish koeffitsiyentlari; N_{Se}, N_r -ionlashgan selen atomlarining hamda rekombinatsiya sathidagi konsentratsiyalar; B – so‘nish omili.

Tenglamalarni tuzishda issiqlik ajralishi asosan Djoul issiqligi sababli, past haroratlarda namunalarning fotoo‘tkazuvchanligi ancha yuqori bo‘lganda va issiqlik yo‘qotilishlar asosan kremniy sirti orqali sodir bo‘ladi deb qabul qilindi.



Tenglamalar tizimini umumiy shaklda yechishda ma’lum qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shuning uchun, o‘rganilayotgan obyektning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, soddalashtirishlardan foydalanish mumkin. Bu holatdagi eng sekin jarayon namunalardagi issiqlikni uzatish jarayonidir, shuning uchun, sohalardagi va energetik sathlardagi tok tashuvchilarning konsentratsiyasini o‘zgarishi namuna haroratining o‘zgarishiga bog‘liq bo‘ladi deb tanlab olindi. Nazariy hisoblashlarda olingan natijalar tajriba natijalari bilan o‘zaro mos tushdi.

Dissertatsiya ishining **“Selen va marganes kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniyda tok avtotebranishlarining parametrlariga tashqi omillarning ta’siri, avtotebranishlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida, selen yoki marganes kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniy namunalardagi tok avtotebranishlarning (rekombinatsion to‘lqinlar) parametrlariga integral yorug‘lik va monoxromatik nurlanishning intensivligi hamda to‘lqin uzunligi, shuningdek, haroratning ta’sirini o‘rganishda olingan natijalari berildi.

Selen yoki marganes kirishma atomlari bilan legirlab, kompensatsiyalangan kremniy namunalardagi kuzatilgan avtotebranishlarning xususiyatlarini o‘rganish natijalari namunalarda joylashgan taglik harorati $T=80\div 200$ K oralig‘ida o‘zgarganida juda katta o‘zgarishi kuzatildi (6-rasmga qarang). Bu harorat oralig‘ida tok avtotebranishining chastotasi quyidagi qonunga muvofiq o‘zgarishi aniqlandi:

$$f = f_T \exp\left(\frac{E_T}{kT}\right) \quad (2)$$

bunda $E_T=0,38$ eV va $f_T=24,5$ Gs.




6-rasm. Si<Se> namunalaridagi tok avtotebranishlarning a- amplitudasi va b- chastotasini haroratga bog‘liq o‘zgarishi, $h\nu=1,18$ eV, $J=1,3\cdot 10^{-6}$ Vt/sm² ·s, $E=150$ V/sm, $\rho=9,3\cdot 10^4$ Om·sm

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish asosida, harorat oshishi bilan tok avtotebranishlari amplitudasining qiymati kamaydi va $T\approx 200$ K bo‘lganda tok avtotebranishlari kuzatilmay qoldi, ya’ni avtotebranishlarni harorat ta’siridagi so‘nishi kuzatildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, monoxromatik nurlanish yoki integral yorug‘lik intensivligi hamda ulangan elektr maydon qiymatini oshishi bilan tok avtotebranishlarining harorat ta’siridagi so‘nishi yuqori harorat qiymatlari tomon siljishi aniqlandi.

